XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI
JARQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING QARORI

Jarqo‘rg‘on tumani, O‘zbekiston ko‘chasi 13-uy. 190600, tel.: (+99876)432-10-08, www.jarqorgon.uz

2023 - yil 10 - avgust VI-55-121-8-112-K/23 Jarqo‘rg‘on tuman hokimligi

Jarqo‘rg‘on tumani mahalliy budjetining 2023 yil II-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘larning xarajatlarga yo‘naltirilishi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 28, 119 va 126-moddalariga muvofiq tuman mahalliy budjetining joriy yil II-choragida daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan foydalanish bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 126-moddasiga asosan hamda tuman hokimligining taklifiga muvofiq tuman mahalliy budjetining 2023-yil II-choragida daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan ilovaga muvofiq mablag‘lar yo‘naltirilsin.

2. Tuman budjetining joriy yil II-choragida daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan yo‘naltirilgan ushbu mablag‘larni tasarruf etuvchilar tomonidan ularning sarflanishi hamda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan hisobot berib borilishi belgilansin.

3. Tuman budjeti daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli, samarali va qonuniy foydalanilishi, shuningdek ushbu mablag‘larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Kenjaev) zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **E.R.Avazov**

Xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tuman
Kengashining
2023-yil 10-avgustdagi
VI-55-121-8-112-K/23-son qaroriga
1-ilova

Jarqo‘rg‘on tumani mahalliy budjetining 2023 yil II-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘larning xarajatlarga yo‘naltirilishi to‘g‘risida

T A Q S I M O T I

№	Tashkilot nomi	Mablag‘ yo‘naltirilishining maqsadi	Ajratilgan mablag‘ miqdori *(ming so‘mda)*	Jamiga nisbatan foizi

1	Jarqo‘rg‘on tumani hokimligiga	Joriy yilning 2-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-5072- sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan mablag‘lar shahar hokimligi qoshida ochilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi" shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida jamlanishi uchun.	1 309 500,0	30,0
		Joriy yilning 2-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan "Yoshlar daftari" jamg‘armasiga mablag‘ yo‘naltirish xarajatlariga	654 750,0	15,0
		Joriy yilning 2-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan "Ayollar daftari" jamg‘armasiga mablag‘ yo‘naltirish xarajatlariga	654 750,0	15,0
		Joriy yilning 2-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan "Saxovat va ko`mak" jamg`armasiga mablag` yo`naltirish xarajatlariga	398 000,0	9,1
		Viloyat hokimligining harbiy ma’muriy sektorlarini rivojlantirish jamg‘armasiga harbiy tashkilotlarda o‘tkazilgan sport musoboqalarida tayyorlangan pano va banerlar hamda berilgan tovar moddiy boyliklardan hosil bo‘lgan kreditor qarzdorliklarni qoplash xarajatlari uchun.	75 000,0	1,7
		Jarqo‘rg‘on tumani hokimligiga istemol qilingan elektr energiyasi, qog‘oz, kantselyariya, sovgalar, konvert marka va moddiy texnik bazasini mustahkamlash, ho‘jalik mollari, foydalanilgan internet, viloyat kompyuterlashtirish markaziga va “E-qaror” hamda kompyuterlar tamirlash xizmatlari uchun.	834 756,0	19,1
		Jarqo‘rg‘on tumani hokimligi balansidagi xizmat avtomashinalariga yoqilg"imoylash materiallari va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari uchun.	44 940,0	1,0
		Jarqo‘rg‘on tumani saylov o‘tkazilayotgan mahallalarning qog‘oz, kanselyariya hamda uqitish jara жараёнларида олиб келинган иссик овкат учун.	31 000,0	0,7
		O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevni 2019 yil 27 iyundagi "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-4366-sonli qarorini 4-bandiga asosan axborot siyosati masalalari bo‘yicha rahbarning maslahatchisi maqomiga hak to‘lash uchun. (Tuman hokimiyatini mehnat shartnomasiga asosan).	12 500,0	0,3
		Surxondaryo viloyati hokimining 2021 yil 28 apreldagi "O‘zbekiston Ko‘zi ojizlar jamiyati Surxondaryo viloyati bo‘limining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga ishonch telefoni orqali Ko‘zi ojizlar jamiyatining viloyat, shahar va tumanlar bo‘limlarini moliyalashtirishda amaliy yordam so‘rab qilgan murojaati to‘g‘risida"gi 02-01/159-sonli bayoni ijrosini ta’minlash maqsadida	15 000,0	0,3

2	Jarqo‘rg‘on tumani Obodonlashtirish boshqarmasiga	Jarqo‘rg‘on tuman markaziy va ichki ko‘chalarini toshkash uchun obodonlashtirish balansidagi texnikalariga yoqilg‘i va yoqilg‘i moylash xarajatlari uchun mablag‘ yo‘naltirish.	250 000,0	5,7
		Jarqo‘rg‘on tumanida yashovchi uy joyga muhtoj fuqarolarni vaqtinchali uy joy bilan ta'minlash hamda hokimyat balansida bo'lgan ijtimoiy uylarni ta'mirlash uchun qurilish materiallarini sotib olish harajatlari uchun mablag‘ yo‘naltirish.	40 000,0	0,9
	Jarqo‘rg‘on tumani Bolalar sport maktabi	Markaziy sport stadiyoni hududida xojatxona qurilishga kerak bo'ladigan qurilish materiallarini sotib olish uchun.	44 804,0	1,0
	Jami:		**4 365 000,0**	**100**